

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

UDK 894.3

Turdiyeva YULDUZ ZAYNIDDIN QIZI

“SHAYTANAT” ROMANI POETIKASI

5A120101 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligi

**Magistr akademik darajasini olish uchun
yozilgan dissertatsiya
Aftoreferati**

Ilmiy rahbar f.f.n. A.Nosirov

SAMARQAND - 2016

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TURDIYEVA YULDUZ ZAYNIDDIN QIZI

“SHAYTANAT” ROMANI POETIKASI

5A120101 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligi

**Magistr akademik darajasini olish uchun
yozilgan dissertatsiya
Aftoreferati**

Ilmiy rahbar

f.f.n. A.Nosirov

Rasmiy taqrizchilar:

dots. A.Turobov

dots. Sh.Eshniyozova

Magistrlik dissertatsiyasi o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2016 yil 26 maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (9-sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof. D.Salohiy

SAMARQAND - 2016

**Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishi
5A120101 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligida ta'lim olgan magistr Turdiyeva
Yulduzning akademik darajasini olish uchun yozilgan “Shaytanat” romani
poetikasi” mavsisidagi dissertatsiyasi
QISQACHA MAZMUNI**

Keyingi yillar o'zbek adabiyotida jiddiy poetik o'zgarishlar vujudga keldi. Buning asosiy sababi, istiqlool davri badiiy adabiyotidagi talqin va tasvirdagi o'ziga xos talqinlar bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek adabiyotida detektiv xarakterdagi badiiy asarlarning shkillanishi va taraqqiy etishi ham, mustaqillik davri bilan uzviy bog'liqdir.

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, tadqiqot ishining ob'ekti, mavzuni o'rganilish darajasi, maqsad vazifalari haqida to'liq nazariy ma'lumotlar beradi.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobi “Romanda mavzu va badiiy g'oya birligi” ded nomlangan. Shu o'rinda, badiiy asardagi mavzularning rang – barangligi, undan kelib chiqadigan badiiy g'oya xususiyatlariga nazariy jihatdan yondashadi va bu tushunchalarni asar mavzusi, g'oyasi bilan uzvilikda tahlil etishga intiladi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi esa “Asarda sujet va kompositsiya yaxlitligi” deb nomlanadi. Ishning bu bobida badiiy asar sujeti, sujet bo'laklarining o'ziga xos tarzda ifodalanishi, bu badiiy unsurlarning asar kompositsiyasi bilan yaxlitlanishi haqidagi mulohazalari o'rin olgan.

Magistrlik dissertatsiyasining kiyingi bobi “Asarda konflikt va ruhiyat talqini” deb nomlangan bo'lib, asar qahramonlarining xarakterini shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni beqiyos ekanligiga alohida urg'u beradi.

Ishning xulosa qismida, asar poetikasi haqidagi nazariy qarashlarini umumlashtirishga, o'zining mustaqil mulohazalarini qayd etishga intilgan va asosli xulosalar chiqargan.

**Samarkand state university faculty of filology, department of uzbek
filology 51120101 b- specialty of literature study, monster's dissertation bon the
theme “poetics of novel “Shaytanat” writer by Turdieva Yulduz”**

Annotation

Several poetic changes are carried in Uzbek litetrature during independence years the explanation is carried That's why the forming of dileative staries in uzbek literature and developing are closely related with independence peried.

Master's dissertation includes introduction, three chapters conclusion and list of literature, introduction has information about actuality, novelty, object , level of study aim and tasks of work.

The first chapters of dissertation work is colled “The unity of theme and literary idea in the novel” The colourfullness of literary work, its idea peculiarities are analysed theoretically.

The second chapters of work is “The sujet and composition in the work”. It includes the sujet of were, its peculiarity, novel composition of literary parts.

The cekond chapters of work is “The sujet and composition in the work”. It includes the sujet of were its peculiarity, novel composition of literary parts.

The next chapter is “Explanation of conflict and spirituality in work”, in definet the main characters forming in social environment.

In conclusion , theoretical thinking about work poetics are feneralised, fave the based conclusions

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan iste’dodli ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. Yozuvchining turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda qissa janrdagi asarlari ham o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida sezilarli hissa bo‘lib qo‘shilgan. Yozuvchining dedektiv xarakterdagi “Shaytanat” romani bu janrning to‘ng‘ich asarlaridan biri bo‘lib, o‘zbek adabiyotida yuksak baholangan asarlardan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimov qayd qilganidek: “Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug‘ bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o‘zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so‘zi, chuqur ma’noli asarlariga ishonch, hurmat-e’tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg‘or qismi bo‘lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir”.¹

Hayot va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosida inson tafakkuri yotadi. Tafakkurda o‘zgarish bo‘lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o‘zgarish bo‘lishi juda qiyin. Istiqlool davrining yuzaga kelishi ham bu jarayonning mahsulidir.

Ma’lumki, o‘z navbatida har bir jamiyat o‘z muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga bo‘lgan munosabati ham har bir davrda turfa xil o‘zgarishlarga uchraydi. Vatanimizning 70 yil davomida o‘z tili va dinidan, milliy qadriyatlaridan uzoqlasha boshlagan bir vaqtda, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi hayot va jamiyatdagi o‘zgarishlarga jiddiy munosabat bildirish tuyg‘usini uyg‘otdi. Zero, har bir shaxsni u yashayotgan jamiyat, u kamol topayotgan ijtimoiy muhit tarbiyalaydi. Jamiyatning kelajagini, keyingi hayotini esa mana shu shaxslar barpo etadi. Hayotda, jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda o‘z in’ikosini topadi. Shu jihatdan jamiyat va inson, inson va insonlararo, tabiat va shaxs o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar badiiy adabiyotda teranroq tasvirlanmoqda. Bunda o‘ziga xos poetik obrazlarni, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni haqqoniy ko‘rsatib berish an’anasi dedektiv xarakterdagi asarlarda yanada teranroq o‘z aksini topmoqda. Bu esa bunday xarakterdagi asarlarni o‘rganish va tahlil etish muammosini yuzaga chiqarmoqda. “Shaytanat” romani shu singari asarlar sirasiga kiradi. Mazkur asarda shaxs xarakterining shakllanish jarayoni, bunda jamiyat va ijtimoiy muhitning tutgan o‘rni, shaxs xarakterida konfliktning yuzaga kelishi va namoyon bo‘lishi o‘z aksini topgan. Shu sababli bu asarning badiiy xususiyatlarni o‘rganish, tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatish magistrlik ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi shakl va mazmun jihatdan boyib borayotgan badiiy adabiyotdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish orqali, janr taraqqiyotidagi poetik talqin xususiyatini Tohir Malikning romani misolida asoslash asosiy vazifalarimizdan biridir. Shu jihatdan yozuvchining “Shaytanat” romanidagi obrazlar tizimini, poetik xususiyatlarini

¹Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.7-бет.

o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni yuzaga chiqarishni asosiy maqsad qilib oldik.

- Dediktiv xarakterdagi badiiy asarlarning o'ziga xos xususiyatini qisqacha izohlash;
- Tohir Malikning xarakter yaratish mahoratini bu roman misolida ko'rsatib berish;
- Asardagi obrazlar tizimining badiiy talqini haqida so'z yuritish;
- Shaxs xarakteri shakllanish jarayonini tahlil qilish;
- Badiiy konflikt turlarini tahlil etish;
- Ruhiy kechinmalarni talqin etishda xarakter qirralarining yoritilishidagi o'rnini ko'rsatishdan iborat.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tohir Malikning yaratgan turli xarakterdagi asarlari adabiyotshunoslar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan. Bu o'rinda M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, H.Karimov, I.G'ofurov, S.Mirzayev, H.Umurov, Bahodir Karim, Ulug'bek Hamdam kabi nazariyotchi olimlarning adib ijodi haqidagi nazariy qarashlariga asoslangan holda mulohazalar yuritishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Mustaqillik mafkurasining shakllanishida Prezidentimiz I. A. Karimovning mulohazalariga tayangan holda, adabiyotshunos olimlarning estetik qarashlariga, fan va madaniyat arboblarning adabiyot nazariyasi hamda adabiyot muammolari bo'yicha yaratgan tadqiqotlariga, taniqli adabiyotshunoslarning Tohir Malik ijodi haqidagi turfa xil qarashlari va nazariy mulohazalari metodologik asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Magistrlik ishimizni yuzaga chiqishida Tohir Malikning "Shaytanat" romani asosiy ob'ekt sifatida asos qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasidan kasb – hunar kollejlari va litseylar, umumta'lim maktablarida adib ijodini o'rganish jarayonida metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek adib ijodiy portretini yaratishda, uning hayoti va ijodini o'rganishda qo'llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning joriylanishi. Magistrlik dissertatsiysi yuzasidan magistrlik davrida sakkizta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB

ROMANDA MAVZU VA BADIY G‘OYA BIRLIGI

Badiiy asarda yozuvchi hayot voqeligini tasvirlar ekan, inson qalbidagi iztiroblarni, hayotiy ziddiyatlarni, inson ma’naviy olamidagi qarama-qarshiliklarni badiiy asar sujetiga singdiradi.

Tohir Malikning “Shaytanat” romani yurtimizda 80-yillarda hukm surgan tuzum, bevosita bu tuzum ta’siri ostida vujudga kelgan jinoyat olami va bu olam vakillari hayoti, taqdiri, ziddiyat va qarama-qarshiliklari, kurashi haqidagi kuzatishlari, fikrlari, xulosalari bayon etilgan asar hisoblanadi. Bu asar detektiv janrning ilk ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, muallif davr ijtimoiy muhiti, jamiyat tuzumining asl ko‘rinishini boricha ochib tashlaydi va buning insonlar hayoti, taqdiridagi o‘rnini mahorat bilan yoritib bergan.

Bu o‘rinda taniqli munaqqid va adabiyotshunos olim Umarali Normatovning quyidagi e’tirofini keltirib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz: “So‘nggi yillarda bizda ham zamonaviy jahon adabiyotida keng tarqalgan detektiv-sarguzasht tur ancha jonlandi, bu adabiy turning Tohir Malikday iste’dodli, professional sohibi qalamlari va uning iste’dodli izdoshlari yetishib chiqdi. Tohir Malikning jahon detektiv-sarguzasht adabiyoti yaxshi namunalari bilan bo‘ylasha oladigan “Shaytanat” asari el orasida katta shuhrat topdi”.²

Darhaqiqat, yaqin kunlarga o‘zbek adabiyotida detektiv janrga mansub bo‘lgan asarlarni deyarli uchratmasdik, Tohir Malikning bu janrda yaratgan mazkur asari, nafaqat, asar muvaffaqiyatini, shuningdek janr taraqqiyotini ta’minlab berdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Shaytanat” romanida qalamga olingan mavzu chirkin jamiyatning illatlari, qusurlari, shuningdek, mustabid tuzumning adolatsizliklari tufayli jinoyat ko‘chasiga kirib qolgan insonlar, imonidan, insoniyligidan voz kechgan shaxslar fojeasini ko‘rsatib, tasvirlab beribgina qolish emas, balki asosiy mavzu mazkur tasvirlar, “mavzucha”lar orqali kishilarni ogohlikka da’vat etish, ular qilgan xatolarni qayta takrorlamaslikka undash, muallif o‘zi ta’kidlaganidek yozuvchining asosiy vazifasini bajarishdan iboratdir. “Shaytanat”ni yozishda men o‘zimni qiynagan muammolarga javob topishga harakat qilganman. Yozuvchining vazifasi nimadan iborat? Jamiyatni kuzatish, tahlil etish, yuzaga chiqayotgan muammolarni hal etishda qatnashish emasmi? O‘tmish jamiyatning og‘riq nuqtalaridan biri – jinoyat olami edi. Men o‘sha xastalikning bir zarrasinigina qalamga olganman. Jinoyat olami, ya’ni shaytonlar yetovidagi olamning naqadar qabih ekanini odamlar o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib yoki eshitib yurgan edilar. Men shulardan ayrimlarini jamlab, qog‘ozga tushirdim, xolos. Bu voqealarni yozishdan asosiy maqsadim – odamlarni ogohlantirish edi: “Odamlar, ko‘rib qo‘yinglar, befarq yurmanglar, siz bilan bizning yonimizda ko‘zga ko‘rinmas, ammo vahshiy bir olam borki, undan o‘zingiz ham ehtiyot bo‘ling! Ayniqsa, farzandlaringizni asrang, toki bu olamga bandi bo‘lib qolishmasin. Bu olamning bittagina eshigi bor.

²Норматов У. Умидбахш тамойиллар:. – Т.: Маънавият, 2000. 50-бет.

Kirdingmi, tamom, o‘z oyog‘ing bilan qaytib chiqishing mahol, kafansiz ketishing aniqroq...” demoqchi bo‘lganman.”³

Muallif asar mavzusini ifoda etishda jamiyat va shaxs munosabatlariga e‘tibor qaratadi va shaxs kamol topishida uni o‘rab turgan muhitning o‘rni alohida ekanligini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotshunos H.Karimov ta’kidlaganidek: “Har bir davr o‘z muammosi, konsepsiyasi, pozitsiyasi va qiyofasiga ega bo‘ladi. Bu hol nafaqat odam, balki jamiyat faoliyatiga ham ta’sir qilib, uning yo‘nalishini ham belgilaydi... Bu jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, siyosiy-ma’rifiy va ma’naviy qarashlarni inson qalb tug‘yonisiz, iztirobisiz, ma’naviy dunyosisiz tasavvur qilish mumkin emas. Inson tafakkuridagi o‘zgarish davr va jamiyatdagi o‘zgarish ta’sirida bo‘lishi tabiiy hol, o‘z navbatida, jamiyatning to‘g‘ri yo‘nalishini belgilash bilan birga, o‘zining hayotdagi o‘rni va mavqeini ham namoyon qiladi... Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o‘zi, uning o‘y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, ruhiy olami yetakchilik qilayapdi, tasvirlanayapdi, ochib berilayapdi”.⁴

Keyingi yillar badiiy adabiyotda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, buning natijasida inson tafakkuridagi ziddiyatlarning maydonga kelishi haqqoniy tasvirlanmoqda. Bu o‘rinda badiiy xarakterning shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni beqiyos ekanligini alohida qayd qilib o‘tmoq zarur. Tohir Malik ham asarda yoritilgan mavzuni ochib berishda aynan shu jihatlarga alohida e‘tibor beradi. Ushbu romanda ishtirok etgan qay bir qahramonni olmang, bu shaxs xarakterining shakllanishida, ruhiy olamining takomil topishida hukmron tuzum, jamiyat hayoti, ijtimoiy muhit o‘zining nechog‘lik darajada ta’sir ko‘rsatganligiga guvoh bo‘lasiz.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy asar haqida shunday yozadi: “Badiiy adabiyot taraqqiyotining ichki omillari mavjudligi va ularning ahamiyatini zarracha inkor etmagan holda, biz har bir davr adabiyotining g‘oyaviy – mazmuniy hamda poetik xususiyatlari, avvalo, o‘sha davrning ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi”.⁵

Muallif asardagi qahramonlar shaxsi konsepsiyasini yaratar ekan, albatta, bu o‘rinlarga alohida e‘tibor qaratadi. Muallif o‘z qahramonlari orqali o‘zini taqdirning “achchiq” va “nohaq” hukmiga duchor bo‘lgan, shu sababli qalbida odamlarga va atrofini zabt etgan borliqqa nisbatan anglab bo‘lmas nafrat, qasos hissini tuyib, umrini bu his olovini bir muncha bo‘lsa-da so‘ndirishga baxshida etgan, o‘zini hayotning “begunoh jabirdiydasi” deb hisoblovchi, lekin bu dunyoda ezgulik, haqiqat, mehr-shafqat, vijdon kabi qadriyatlarning borligini-da unutgan shaxslar yaratadi. Shuningdek, romanda mol-dunyo, mansab, shon-shuhrat deya o‘zligini-da unutgan, o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tap tortmaydigan shaxslar taqdirini ham aks ettiradi. Lekin bu bilan asardagi barcha qahramonlar salbiy xarakterga ega degan xulosani berishdan yiroqman. Asardagi qahramonlar

³ Курбон Ш. Тохир Малик сабоклари: Адиб шахсияти ҳақида ўйлар. – Тошкент: DAVR PRESS, 2008. – 57-58-бет.

⁴ Х.Каримов. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. –Тошкент, Янги нашр нашриёти, 2010. 224-бет.

⁵ D. Quronov. Cho‘lpon nasri poetikasi. –Toshkent, Sharq, 2004-yil. 8-bet.

murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan, taqdirning turli sinovlarini boshdan kechirgan shaxslardir. Ularning dunyoqarashi, psixologiyasi, hayot tarzi, xarakter yo'nalishiga kirib borar ekansiz, ularni o'rab turgan, ular nafas olayotgan olam haqida sizda bir muncha tasavvur shakllanadi. Zero, shaxs xarakteri shakllanishida ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi. Tohir Malik aynan shu jihatga, aynan shu jarayonga alohida e'tibor qaratgan holda, asarda jamiyatning o'sha vaqtlardagi mavjud bo'lgan og'riqli va og'ir nuqtalarini yaqqol tasvirlashga harakat qiladi. Muallifning o'zi ham bu haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Zamon bergan erkinlikdan foydalanib, turmushimizning qora ko'chalariga kirishga jazm etdim. Yozganlarimni o'qib, chor-atrof zimiston ekan-ku, deb vahimaga berilmang. Yorug' kunda barcha narsalarni ko'rib turamiz. Qorong'uda esa ko'rmaymiz. Urilib, surilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug' kunning qadriga yetmoq uchun qorong'ulikni ham ko'rish lozim emasmi?".⁶

Darhaqiqat, asarda yurtimizning ozodligi, erki o'zida bo'lmagan, mamalakatda ham ijtimoiy, ham ma'naviy hayot izdan chiqqan, shaxs hayoti, taqdiriga yuzaki qaratilgan, jamiyatda turli-tuman qora kuchlar hukmronligi avj olgan davri o'z aksini topgan. Bu davrda insonlar, hattoki, xalqlar siyosiy o'yinning qurboni, mansabparast, manfaatparastlar o'ljasiga aylangan. Mustabid tuzumning tazyiqi, ayirmachilik, millat g'ururi, nomusining poymol etilishi xalq ongida o'chmas va azobli iz qoldirdi. Minglab insonlarning taqdiri tamoman o'zgarib, hayoti chirkinliklarga botdi. Jamiyatdagi nohaqliklar, poraxo'rlik, qo'shmachilik, riyokorlik, badnafslilik, boylikka, martabaga xirs qo'yish illatlari qanchadan-qancha umrlarni xazon qildi, hayotini zulmatga to'ldirdi, kelajagini, barbod etib, orzu-umidlariga qabr qazidi. Mavjud tuzumga nisbatan odamlarda norozilik, nafrat, alamzadalik tuyg'ularini keltirib chiqardi. Bir xato boshqasini boshlab kelaverdi. Ba'zi shaxslar jamiyatning bunday ahvolidan foydalanib, hayotning qorong'u, chirkin, tor va boshi berk bo'lgan ko'chalariga berkinib o'z maqsadi, muddaosi yo'lida kurashni davom ettiraverdi. Kimdir g'olib, kimdir esa mag'lubga, majruhga aylandi.

Ba'zi shaxslarda o'zgacha ruhiyat, o'zgacha dunyoqarash shakllandi; yashab qolishning yovuzona qonunlari yaratildi. Shu o'rinda muallifning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb bilamiz: "Men jamiyatning jinoyatchilarsiz ravnaq topishini orzu qilaman. Hech kimning bolasi jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Hech qaysi ota-ona farzandi tug'ilganda "o'g'lim (yoki qizim) o'g'ri bo'lsin, giyohvand bo'lsin", deb orzu qilmaydi, lekin, afsuski, ma'lum yoshga yetganda ayrimlar jinoyat ko'chasiga burilib, shaytanat olamiga kirib ketganlarini o'zlari ham bilmay qoladilar."⁷

Muallif asaridan tasvir bermoqchi bo'lgan haqiqat, asosiy mavzu ham shu. Jar yoqasiga borib qolganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish va avvalombor, bu "jar" atrofiga yaqinlashtirmaslikdir. Mamalakatimiz tarixida qonli iz qoldirgan Farg'ona voqealari siyosiy maqsad uchun uyushtirilgan millatdoshlar qirg'iniga aylandi.

⁶Tohir Malik. Shaytanat. Roman. Beshinchi kitob. – Toshkent, Sharq, 2011-yil. 632-bet.

⁷Курбон Ш. Тоҳир Малик сабоқлари: Адиб шахсияти ҳақида ўйлар. – Тошкент: DAVR PRESS, 2008. – 56-бет.

Nechalab odamlarning qoni to'kilishiga, halok bo'lishiga sabab bo'lgan bu voqea, yana qancha insonlarning taqdirini o'zgartirib yubordi. Aynan mana shu muhitda, tuzumda voyaga yetayotgan shaxslar xarakteri, ruhiyati, dunyoqarashi qay tarzda shakllanishi mumkin? Atrofida bo'layotgan voqealar inson qarashlarini boshqa bir o'zanga burib yubormasmikan? Kishi falsafasi, tanlamoqchi bo'lgan yo'li, kelajak taqdiri ijtimoiy muhit ta'sirida belgilanmasmikan? "Shaytanat" asarini ko'rib chiqib, undagi qahramonlar hayot yo'lini, dunyoqarashini kuzatar ekanmiz ana shunday savollarga javob olamiz.

Tohir Malik asarning bosh g'oyasini ifodalashda, asosiy mavzuni yuzaga chiqarishda asar qahramonlari bo'lmish Asadbek, Zohid, Elchin, Chuvrindi, Kesakpolvon, Anvar, Zaynab, Hosilboyvachcha, Xongrey kabi obrazlarning taqdiri, hayot yo'llari manzarasidan mohirona foydalanadi. Xususan, bu o'rinda bosh qahramon Asadbekning fojeali bolaligi, achchiq qismatida asarning bosh mavzusi yotadi. Asadbek obrazi orqali biz dunyoni faqat qora ranglarda ko'ruvchi, "hayot beshafqat, hayot naq urushning o'zi, og'zingni ochib lalayganing – o'lganing" degan aqidaga amal qiluvchi, bu dunyoda adolat, haqiqat, ezgulik kabi tushunchalarning borligiga ishonmaydigan, mehr-shafqat, vijdon, insoniylik kabi qadriyatlar mavjudligini esa tamoman unutayozgan, taqdirning achchiq zarbasi tufayli atrofdagilarga va o'z muhitiga nisbatan qattiq nafrat hissini o'zida mujassam etgan shaxs taqdirini ko'rishimiz mumkin. Asadbekning yuragiga qadalgan va ulg'ayib, qo'porib bo'lmaydigan daraxtga aylangan yovuzlik urug'i, albatta, o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Bu urug'ning zarralari o'sha davrdagi tuzum, jamiyat hayoti, ijtimoiy muhit ta'siri orqali vujudga kelgan edi.

Yovuzlik urug'ining bunchalar chuqur ildiz otishini muallif mahorat ila yoritib beradi. Yangi yil oqshomida Asadbekning otasi ko'z oldida olib ketilishi tufayli uning vujudida qo'rquv hissi bilan birga nafrat tuyg'usi ham jo'sh uradi: "Dadasi ularga boshqa yalinmadi. Faqat: "O'g'lim bilan xayrlashib olay", deb izn so'radi... dadasi shu ketgancha qaytib qaytmadi".⁸ Otasining qaytishini intizorlik bilan kutayotgan bolakayning umidlarini chilparchin etib, chana bilan qaytgan otasini xafa qilib, yolvorishlariga qaramasdan o'zlari bilan olib ketgan "yomon odamlar" bolakay xotirasida o'chmas iz bo'lib qoladi, yosh Asadbekning qalbida ularga nisbatan cheksiz nafrat uyg'onishiga sabab bo'ladi. "Qorong'u kechada unga qo'rquv yaqinlashmadi, lekin mitti yuragiga yovuzlik tuxum qo'ydi. Yovuzlikning birinchi ovozi o'rtoq'i Jalil eshitdi: -Ularni o'ldiraman!..."⁹

O'sha davr muhiti, jamiyatdagi hukmron tuzum tufayli otasining xalq dushmani sifatida ayblanib qamoqqa olinishi Asadbek taqdirida keskin burilish yasaydi. Dastlab "xalq dushmani" kim ekanligini anglamagan, bu so'zning ma'nisini-da, tushunib yetmagan bolakay qalbi tengdoshlarining, hattoki, kattalarning sovuq va qahr ila qilgan munosabatlaridan, "dushmanning bolasi" degan ta'na-yu malomatlaridan so'ng qasos va intiqom makoniga aylana boradi. (1949-yilning 31-dekabri Asadbekda "hayot beshafqat, hayot naq urushning o'zi, og'zingni ochib lalayganing – o'lganing", degan haqiqatni oydin qilib bergan edi.

⁸ Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 2006.10-бет.

⁹ Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 2006. 24-бет.

O'sha kuni u urushga kirgan edi) Keyinchalik ukasining vafoti, onasining savdoyi bo'lib qolishi uning qalbidagi ahdni qat'iy lashtirdi. Otasini olib ketganlarga nisbatan beriladigan jazo va olinadigan qasos yo'llari ham o'sha onda belgilandi.

Hayot shafqatsiz, uning egri – bugri yo'llari insonni turli yo'llarga olib kiradi. Xuddi shu voqeadan so'ng Asadbek qalbida insoniyatga, qanday shaxs bo'lishidan qat'iy nazar, nafrat hissi uyg'onadi. Asarga asos qilib olingan shu mavzu voqealar rivoji uchun asos bo'ladi. Shuning uchun mavzu – badiiy asarda falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va boshqa muammolarni qo'yish hamda yoritishga xizmat qilgan, shu asarning hayotiy asosini tashkil etgan voqealar silsilasidir. Yuqorida qayd qilib o'tilgan voqealar Asadbekning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. To'g'ri, Asadbekda ijobiy hislatlar emas, aksincha, salbiy jihatlarning shakllanishiga asos bo'lsa – da, shu voqea unga turtki bo'lgan.

“Mavzu – deb yazadi, - adabiyotshunos To'xta Boboyev, - badiiy asar bilan hayotni bir – biriga bog'lovchi vosita. Shunga ko'ra, badiiy asarning tematik tahlili jarayonida san'atning voqelikka estetik munosabati haqida fikr yuritiladi”.¹⁰

So'z san'atkori badiiy asar yaratishdan oldin ma'lum bir voqelikka munosabat bildiradi, shu voqelikni ma'lum bir qismini badiiy asar uchun asos qilib olishga intiladi.

Bu o'rinda badiiy asar mavzusi hayot voqeligi bilan chambarchas bog'liqligi, ammo yozuvchi, ijodkor uni qayta sintezlashi, har qanday hayot voqeligini emas, undan saralab, eng xarakterli jihatlarinigina kiritish mumkinligiga urg'u berilmoqda.

Badiiy asarda mavzu va g'oya qay darajada chambarchas bog'liq bo'lsa, shakl va mazmun ham shu darajada bog'liqdir. Biri ikkinchisini to'ldiradi, izohlaydi, uzviylikni ta'minlaydi. “Yozuvchi asar yozishdan avval niyat tug'iladi, bu niyat hayot ta'sirida paydo bo'ladi. Yozuvchi shu asosda mavzu tanlaydi, estetik niyat g'oyaga aylanadi”.¹¹

“O'shandan boshlab har tun shu hol takrorlanaverdi. Zinatulinning taqdiri o'sha tunlarning birida hal qilingan edi. U damda Asadbek Zinatulin degan zotni bilmasdi. Aynan shu odamni jinnilikka hukm ham qilmagan edi. Uylariga bostirib kirganlarning biri qiynoq bilan o'lim topmog'i, ikkinchisi jinni bo'lib xorlanishi lozim edi...”¹²

Darhaqiqat, otasining olib ketilishi, ukasi va onasining o'limi, bolaligining o'g'irlanishi Asadbekning mana shunday yovuz inson bo'lib ulg'ayishini asoslaganday, go'yo. Bu o'rinda yozuvchi Asadbek kabi insonlarning o'z-o'zidan “asadbeklar” bo'lib qolmasligini mahorat ila yoritib beradi. Tohir Malik qahramonining yovuzligi haddan ortiq bo'lsa-da, u ham, avvalo, inson deb atalmish mavjudot ekanligini unutmaydi, dunyoda faqat va faqat yaxshi xislatlarga ega bo'lgan inson bo'lmagani kabi butunlay yomon illatlarga ega insonlarning ham insoniyligi borligini yodga soladi. Biz buni Asadbekning oilasidagilarga, sheriklarilariga, hattoki, “hamkasblariga” bo'lgan munosablarida ham ko'rishimiz

¹⁰ T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent, “O'zbekiston”, 2002. 100-bet.

¹¹ U. To'ychiev. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari.

¹²Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 2006.180-бет.

mumkin. Zero, Asadbek, jinoyatchi bo'lsa-da, muallif uning, avvalo, o'zbek ekanligini yoddan chiqarmaydi. O'z rafiqasini-da qimorga tikib boy bergan gruzin Sulikoning xotini bilan aka-singil tutinishi, o'g'illarini o'qimishli qilib tarbiyalashi, rafiqasiga bo'lgan munosabati bularning isbotidir. "Asadbek xotinini behad hurmat qiladi, boshiga ko'tarib yuradi, desam, sizni aldagan bo'laman. Asadbekka muhabbat begona, desam, siz ishonang. Hayotdan alamzada yurak ko'zlari yovuzlik pardasida to'silgan, muhabbat otlig' pokiza fazilat bunday biqiq va qorong'i bo'shliqda yashay olmas edi. Lekin shunga qaramay, xotiniga bir buyum yoki o'yinchoq sifatida ham qaramas, Manzuraning ayrim qiliqlari, ishlari yoqmaganda ham qattiq gapirmas edi".¹³

Yozuvchining bu talqinida Asadbekning bu oilasi Manzura portreti yaratilgan bo'lib, bunda uning o'ziga xos insoniy fazilatlarini yuzaga chiqarishga harakat qilgan. Adabiyotshunos D. To'rayev kompozitsion vositalar haqida so'z yuritib: "Xarakterlar olamini yaratish – yozuvchining bosh g'oyani tanlashi va uning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlarning o'zaro aqliy va hissiy jihatlaridan joy – joyiga tushishi, tasvir me'yori va buning bosh badiiy g'oyaga muvofiqligi taqozo etiladi".¹⁴

Har qanday badiiy tasvir badiiy asar tarkibidagi ma'lum qahramonning u yoki bu hayotini kichik epizodik qirrasini talqin etishi zarurdir. Shu jihatdan, yuqorida qayd qilingan nazariy tushunchalardan badiiy asar g'oyasini ifodalashda tasvirda me'yor bo'lishi zarurligi qayd etilgan.



Tohir Malikning asardagi yana bir yutug'i, aniqroq qilib aytganda yozuvchilik mahoratining yana bir ko'rinishi shundaki, u qahramonlariga to'g'ridan-to'g'ri nasihat qilishdan, ularga qilmishlariga yarasha jazo olishlari tayin ekanligini soddagina qilib aytishdan qochadi. To'g'ri, ko'pgina o'rinlarda Asadbekka do'sti Jalil, ota do'sti Muhiddin ota, Abdurahmon tabib kabi

¹³ Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 2006.28-бет

¹⁴ D. To'rayev. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T., "Universitet", 2001. 62-bet.

qahramonlar nasihatlar qilganiga guvoh bo‘lamiz, lekin bu gaplarning hech biri Asadbekning etini jimirlatmaganini, uni o‘ylashga-da majbur eta olmaganini ham bilamiz. Yozuvchi esa asarda ko‘plab tush tasvirlaridan mahorat ila foydalanadiki, bu hattoki, Asadbekni ham loqayd qoldirmaydi. Romanning 1-kitobida Asadbekning bir tush tasviri keltiriladi. “Asadbek bir tush ko‘rdi: o‘zi mozorda turgan emish. O‘rkach – o‘rkach qabrlar oq tuyalarga aylanib, karvon bo‘lib tizilib ketayotganmish. Oq tuyalar ko‘zida yosh bor emish, tuyalar qabristonni tark etgach, bo‘ron turganmish. Quyun do‘mpayib turgan qabrlarni xuddi qozon qopqog‘iday ochib, murdalarni sug‘urib olib, qiyomatni boshlab yuborganmish. Murdalar to‘zigan xazon singari Asadbek atrofida charx urarmish...”.¹⁵ Kitobning X bobiga kiritilgan mazkur tasvir Asadbekning hukmronligiga putur yetgan, qizini o‘g‘irlab, bir ahvolda uyga tashlab ketishgan, o‘zi ham saltanatining “qumdan barpo etilganligini” ichdan his etayotgan damlari bilan birga beriladi. Yozuvchining bundan ko‘zlagan badiiy niyati qahramonning rafiqasi – Manzura tomonidan tushga berilgan ta’birda oydinlashsa: “...mozorimizdan avliyolar ketib qolishibdi. Odamlardan iymon ko‘tarilganigamikin...”, keyingi o‘rinda muallifning quyidagi ta’kidi orqali konkretlashadi: “Asadbek o‘ziga tegishli gap bo‘lganida aytaylik “dushmanlaringiz bosh ko‘tarar ekan, sizdan avliyolar yuz o‘giribdi”, deyilganda boshqacha holatga tushardi, yonboshiga o‘girilib yotavermasdi.

Tohir Malik Asadbekning tanlagan yo‘li oxir-oqibatda yaxshilik bilan yakun topmasligini, qilgan gunoh ishlari uchun javob berishi muqarrar ekanligini jo‘ngina aytib qo‘ya qolmay, buni mahorat bilan qahramoniga anglatishga harakat qiladi. Asarning 3-kitobida keltirilgan tush tasviri 1-kitobda keltirilgan tush tasvirinining to‘liq va tugal ko‘rinishidek taassurot qoldiradi kitobxonda. Darhqiqat, bu tush ham qabriston tasviri bilan boshlanadi, shundan so‘ng Asadbek olov tillari ko‘rinib turgan onasi va Samandarning qabrlarini ko‘radi, otasonasi bilan suhbatda bo‘ladi.



Asarning badiiy g‘oyasi bir nechta kichik g‘oyalardan tarkib topgan bo‘lib, bu yuqorida ifodalangan asar mavzusi bilan mutanosibdir, ya’ni muallif yuqorida ta’kidlaganidek: “Bu voqealarni yozishdan asosiy maqsadim – odamlarni ogohlantirish edi: “Odamlar, ko‘rib qo‘yinglar, befarq yurmanglar, siz bilan

¹⁵ Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарк, 2006.165-бет

bizning yonimizda ko'zga ko'rinmas, ammo vahshiy bir olam borki, undan o'zingiz ham ehtiyot bo'ling! Ayniqsa, farzandlaringizni asrang, toki bu olamga bandi bo'lib qolishmasin. Bu olamning bittagina eshigi bor. Kirdingmi, tamom, o'z oyog'ing bilan qaytib chiqishing mahol, kafansiz ketishing aniqroq..." demoqchi bo'lganman."¹⁶

Yozuvchi badiiy g'oyani talqin etishda, faqatgina ularning yovuzliklarini, qilmishlari va jinoyatlarini tasvirlash orqaligina yuzaga chiqarmaydi, shuningdek, bu qahramonlarning qilmishlariga yarasha olgan javoblarini, aytish joiz bo'lsa, jazolarini ham ko'rsatib beradi. Zero, asarning bosh g'oyalaridan har kim o'z gunohiga yarasha javob berishi lozimligi, yuqorida ta'kidlanganidek, "jinoyat olamiga kirganlarning kafansiz ketishi aniqroq" ekanligidan ogoh etishdir. Xususan, asar bosh qahramonlaridan Asadbek qilgan gunohlari uchun qizining nomusi va baxti, o'g'lining hayoti bilan javob bergan bo'lsa, Chuvrindi, Kesakpolvon, Hosilboyvachcha, Xongrey kabilar o'z joni bilan, ayanchli o'lim topishlari bilan, javob berishdi.

Romanda o'ziga xos xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bir qahramon borki, bu obrazning o'ziga xos fikrlash tarzi, ruhiy olami va qarashlari kishini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. Bu qahramonni tom ma'noda o'zigagina xos bo'lgan qalb sohibi, o'z dunyosiga, o'z qonun-qoidalariga ega bo'lgan inson, boshqalarga umuman o'xshamaydigan, millionda bir uchrovchi shaxs desak, adashmagan bo'lamiz.

Darhaqiqat, badiiy asar g'oyasi asardagi barcha unsurlarni o'zaro birlashtirishi, badiiylik me'zonlarni ta'minlashi zarurdir. Shuning uchun badiiy g'oya va mazmun, mavzu o'zaro dialektik uzviy birlikda bo'ladi. Badiiy asar g'oyasi asrdagi konfliktni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Mavzu va g'oya birligi badiiyat tarkibida asarni mukammal shakllantirishga xizmat qiladi.

¹⁶ Қурбон Ш. Тоҳир Малик сабоқлари: Адиб шахсияти ҳақида ўйлар. – Тошкент: DAVR PRESS, 2008. – 57-58-бет.

II BOB

ASARDA SUJET VA KOMPOZITSIYA YAXLITLIGI

Yuksak darajada yaratilgan san'at asarlarida sujet va kompozitsion birlik mukammal darajada bo'ladi. "Sujet qahramon obrazi tarixini ko'rsatsa, badiiy til uni jonli ifodalab beradi. Kompozitsiya esa buni qiziqarli va anglashilarli, izchillik orqali batartib ko'rsatishga qobildir".¹⁷ Sujetda g'oyadan tashqari bevosita mazmun ham mavjud bo'ladi. Yirik epik asarlarda sujet ko'p tarmoqli bo'ladi. Badiiy asar sujeti asosida badiiy konflikt turadi, ixshuning uchun u tez rivojlanadi va shakllanib boradi. Sujet-xarakter tarixi, xarakterni shakllantiradi, sujetning voqealari esa xarakter yaratish vositasidir.

Matn nisbiy ijodiy mustaqillikka dahldor: bir qarashda, muloqot jarayoni asar umumruhiyatiga singishmagandek! Biroq, uch yigit orasida kechgan suhbat asnosida adib jamiyat illatlari – tor manfaatparastlik, xudbinlik va boylikka ruju qo'yish muammolarini muhokamaga tortadi. Muayyan shtrix vositasida ulkan uminsoniy g'oyalarni berish texnikasi va jonli mushohadani teranlashtirish san'atkor badiiy talqini o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ifodada hayotiy-falsafiy umumlashma yaratish uchun muallif tafsilotlarni bir biriga payvandlaydi. Ilova romanning yaxlit tasvir manzarasini to'ldiradi, unda odamzot ruhiyatiga ilashgan nuqsonlar qalamga olinadi. Axloqiy tubanlik sari yuzlangan yigitlar ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini umuman tasavvur qilishmaydi. Aslida ma'naviyat va marifat tuyg'ulari inson kamolotini belgilovchi asosiy tushunchalar hisoblanadi. Ulardan mosivo bo'lishining o'ziyoq katta fojia shuni yaxshi biladigan Normurod Shomurodovning yigitlardan hafsalasi pir bo'ladi. G'ayritabiiy fe'l-atvorga ega, lekin muayyan inson qiyofasida to'liq gavdalanmaydigan, tor manfaatparastlik bir-biriga bog'lab turgan uchala yigit mukammal ong, tushuncha va ruhiyatdan mahrum. Shu xulq belgilari vositasida adib, muhit hamda jamiyat manzaralarini chizadi. Inson o'zligidan tug'ilgan psixologik kulfat ijtimoiy munosabatlarga xavf tug'diradi. Ushbu zaiflik psixologiyasini bartaraf etish odamzot ehtiyojlarini teranlashtiradi. Muallif yangi zamon kishisi uchun juda ham ahamiyatli bo'lgan yana bir xislat – faollikni ulug'laydi. Bu tuyg'u insonga kelajakka ishonch bilan qarash, mustahkam iroda bilan yashash, bunyodkorlik hissini beradi. Ifodaviylikda teran psixologik tahlil kuzatiladi. Adib qabariq tasvir vositasida muhim ijtimoiy muammo – xudbinlik manzaralarini tahlil qiladi. Agar yovuzlik va razolat muhit uchun qay darajada xafli bo'lsa, xudbinlik ham, loqaydlik ham shunchalik tanazzulga boshlaydi. Suhbatdoshlar, ularning har birining o'z orzusi mavjud. Kimdir, jiguli, kimdir volga avtomashinalarini xarid qilishni orzu qiladi. Bu tilaklar yigitlar dunyoqarashini, ruhiyati va maqsadlarini asoslaydi. Professor Normurod Shomurodov esa diyonat, halollik va vijdon tushunchalarini ulug'laydi. Bir qarashda, qahramon maqsadi ezgulikka yo'g'rilgan, biroq adolat tantanasi kurashni taqozo etadi. Yigitlarning xatti-harakatlari jiddiy xatar kasb etmaydi. Vaqt va inson umri mazmuni haqidagi iztirob hamda dramaga to'liq ijtimoiy talqinlarda yozuvxhi muhim falsafiy aqidalarni ilgari suradi. Ipik talqin ruhiy asoslarini iztirobli o'ylar

¹⁷ U. To'ychiyev. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. –Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2011. 335-bet.

iskanjasida voyaga yetadi. O'zligini to'la anglagan insongina baxt va saodatga erishadi. Hayotning psixologik teran haqiqatlari shundan darak beradi. O'z navbatida, qahramon shaxsiyatini mujassam ulug'vorlik kitobxonni hushyorlikka davat etadi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, ijodiy mantiq hamisha ong hamda axloq umumlashmasi estetik qiymatga erishgan oliy darajasini kafolatlaydi. Unda inson shaxsi, madaniy sajiyasi baholanadi. Ijodiy mantiq sajiyasini, shartli ravishda, ikki turkumga ajratish maqsadga muvofiq: dastavval, mavjud ilg'or madaniy qadriyatlar silsilasini o'zlashtirish, ikkinchidan yangicha ijodiy munosabat ruhiyatini tavsiflash. Obraz negizi, badiiy so'z birikmalari tovlanishi adabiy tafakkur taraqqiyotini tayin etadi. Adib romanlarida an'anaviy-axloqiy muvozanat buzulishi hamda uning ijtimoiy-ruhiy omillarini ochib berishga moyillik kuzatiladi. Muallif aksar nuqtalarda joriy an'analarni inkor etishga urinmaydi, balki ijtimoiy muhitda yuzaga kelgan muayyan yutuq kamchiliklar timsolida umumlashtirishga moyilligini kuchaytiradi. Inson qalbidagi his-tuyg'ular ziddiyati, undagi muhim o'zgarishlar, yangi davr sharoiti bilan bog'liq taassurotlar mantig'ini asoslash san'atkor ijodi mag'zi, qahramon mas'uliyati va faolligi esa badiiy fikr mantiqiy taraqqiyotning tayanch nuqtalari sanaladi. Ijodiy mantiq izchilligi taminoti esa mushohada konsentrat badiiy matnda yorqinroq namoyon bo'ladi. Tushuncha, tasavvur va taassurot hajmi estetik markazda yig'ilgan ifodasi asar yaxlitligida maromiga yetadi. Aynan materiya murakkabligi, to'laqonligi va o'ziga xosligini matn butunligi belgilaydi. U anglash va axloq me'yorlarini ifoda tugallanmaganligi hamda vazifadoshligiga yo'naltiradi. Hayotiy-maishiy vaziyatlar yaxlitligida insonni esteik hodisa sifatida baholab, odamzod mavjudligini badiiy qadriyat markazi tarzida tadqiq etadi. Obektiv omillar va subektiv munosabat omuxtaligi esa bevosita hamda bilvosita matn mantiqiy takomiliga borib tutashadi.

Badiiy asar sujeti bir necha tarkibiy qismlardan iborat va ular o'zaro bog'liq; qismlar qatoriga ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kiradi. Ba'zi asarlarda sujetning prolog (muqaddima) va epilog (xotima) kabi qismlari ham bo'ladi. Asarning o'zida syujetning barcha qismlari bo'lishi shart emas. Ammo tugun va kulminatsiya bo'lishi zarur.

Badiiy asar sujeti xarakterlarni shakllantiradi. Epik va dramatik asar sujeti haqida quyidagi ta'rif ilgari surilgan: "Asardagi odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya va antipatiyalar, umuman kishilar o'rtasidagi munosabatlar-u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir".¹⁸

Xususan, bu keltirilgan ta'rifdan qahramonlarning o'zaro prolog va epilog kam uchraydi. Sujet qismlarining har biri badiiy asar mazmunini ochishda muayyan vazifani bajaradi. Shunga ko'ra ularning har birini alohida – alohida ko'rib o'tish va aniq mushohada qilish zarur. Sujet qismlari va qahramon xarakteri rivojini birga tahlil etmay asar mazmunini shunchaki, hikoya qilib berish quruq bayonchilikdir. Chunki sujet xarakter tarixidir. Har qanday badiiy asarning asar

¹⁸ T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent, "O'zbekiston", 2002. 108-109-betlar.

bo‘lib yaratilishida, uning g‘oyaviy maqsadini yuzaga chiqarishda sujet unsurlari alohida o‘rin tutadi. Lirik asarlarni syujetsiz tasavvur qilish mumkindir, lekin nasriy asarlarda bu muhim bo‘lak hisoblanadi.

Borliqni badiiy idrok etishda estetik munosabat muhim o‘rin tutadi. Poetik tizimning xususiy manzarasi timsoliy tafakkur mohiyatini ifodalaydi. Unda ilmiy me‘zon va metadologik asos o‘zaro birlashadi. Ayni paytda, ham ilmiy, ham metadologik markazga tayanadigan tushuncha atamashunosligi hali to‘liq barqarorlashmagan. To‘g‘ri, badiiy mushohadaning mantiqiy taraqqiyoti, poetik tushuncha mohiyati va adabiy talqin uzluksizligi, estetik ilg‘am va tasvir xranatopi yaxlitligi, ijodiy materiya va ifoda madaniyati hamkorligi, ma‘no maydoni janriy uslubiy vazifadoshligi kabi yetakchi poetalogik mezonlar turfa nazariy aspektlarda muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq, istiloh tabiati tarifga sig‘masligi va ilmiy qarashlar keskin tafovutda masalani ma‘lum darajada murakkablashtiradi.

Aslida “poetika tushunchasi ijodkor fitrati va estetik qadriyat hosilasi matn uzviy munosabatini tanlov, uyushma hamda vazifa nuqtai nazaridan tekshiradi. Aynan “yozvchi ijodida ong miqyosi adabiy konsepsiyalar qolipi va joriy davr poetikasi”ni tasdiqlaydi. Biroq poetik faoliyatning xususiy mohiyati muntazam ravishda umume’tirofdagi nazariy mezonlarni buzushga intiladi. Zotan, materiya va ifoda uyg‘unligi, ham ziddiyati tushuncha tadqiqot markaziga ko‘tariladi. Unda “til material tanlovi va qayta idrok tadriji” (V.V. Vinogradov) muallif dunyoqarashi (badiiy haqiqat) hamda umummohiyat (an‘ana, janr, estetik mezonlar barqarorligi) ixtilofini tashkil etadi. Aslida adabiy ong, nutq madaniyati va an‘ana davomiyligi poetika bosqichlari kafolati, badiiy shartlilik matn joriyligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Hissiy muqoyasada o‘lcham uni anglash me‘yorlarni asoslaydi. Uyushma va kommunikativ izchilligi matn ijodiy yaxlitligini ta‘minlaydi. “Har qanday adabiy (shu jumladan, poetik) asar san‘atkor ijodiy faoliyatining ruhiy olami, insoniyat tarixi moziyi va kelajagi bilan keng tizimaro aloqalantirilgan tutashuv asosida yuzaga keladi, ayni paytda, hamkorlik va o‘zaro munosabatning aniq murakkab yaxlitligini shakllantiradi”, -deya ta‘kidlaydi G.M.Fridlender. Darhaqiqat, g‘oyaviy estetik o‘ziga xoslik va betakrorlik ijod falsafasi mag‘zini tashkil etish bilan birga san‘atkor badiiy izlanishlari tabiatini ham asoslaydi. Unda mafkura, axloq va nafosat yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Roman adabiy janri poetikasi tizimlararo o‘zaro aloqalar uyushmasi tig‘izligidan iborat. Unda tasavvur aniqligi tushuncha hosil qiladi. So‘z umumlashmasi ijodiy mantiqni matnda markazlashtiradi. O‘z navbatida, har bir adabiy asar davr ruhiyati poetik manzarasini chizadi. Aslida, real voqelik mohiyatida ijtimoiy birlik mavjud. Muallif tanlovi uni estetik ilg‘ash baravarida epik ifoda materiallariga yo‘naltiradi. Badiiy shakl o‘ziga xosligi, materiya intizomiy ma‘no qatlamlarini maqsadga uyushtirish tabiatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy qarashlarda estetik qadriyat tayanch nutqi ifoda mohiyati va aniqligini yetakchi mezon darajasiga ko‘tarishi e’tirof etilgan hodisadir. Hayotiy aqida hamda tasvir ruhiyatini adabiy janr tushunchasi birlashtiradi. Roman badiiy shakli tadqiqoti uning predmeti qamrovi kengligi, poetik munosabatga ta‘sir

o'tkazadigan ichki va tashqi tamoyillar jamuljamligi, ijodiy talqin mustaqilligi teranligi bilan muayyan ahamiyat kasb etadi. Estetik ong janr aniqligini asoslaydi. Badiiy shakl joriyligi voqelikka ijodiy munosabatni uyushtiradi. Hissiy idrok uzvi tasavvur yaxlitligini taqozo etadi. Demak, badiiylilik mezoni va imkoniyati mantiqiy tadriji atama miqyosi a'zolari rang - barangligini tasdiqlaydi. Shu boisdan, biz taqdim etayotgan bu mavzuda muammoning yetakchi xususiyatlari – matn adabiy mundariyasi tamoyilari badiiy makon va zamon talqini, uslub xususiyati, muhim komponentlarning ichki aloqadirliigi, tasvir xranotopiyasi, axborot uzatishning o'ziga xosligi, ifoda shakl erkin yurushlariga ko'proq urg'u berishni maqsad qilib qo'ydik.

“Badiiylilik – san'atning, jumladan, so'z san'atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko'plab olimlar badiiylilikni xilma-xil talqinlar, ta'rif-u tavsiflar etib kelishadi. Ammo biror bir olim badiiylilik haqidagi mening talqinim to'g'ri, deb da'vo qila olmaydi. Chunki san'atkorning qoni va joni bo'lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadad bo'lib, u har bir davr adabiyotida, uning turlicha yo'nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayriicha olingan namoyondasida o'ziga xos tarzda, o'ziga xos miqyos va darajada namoyon bo'ladi” –deb yozadi adabiyotshunos B.Sarimsoqov. Darhaqiqat, tushuncha qamrovi nihoyatda keng. Unda g'oya adabiy harakat miqyoslarini birlashtirishi, tasvir obekti, ijtimoiy –siyosiy vaziyat yaqqolliigi ifoda predmetining xoslanganlik darajasi qamrab olinadi.

T.Malikning “Shaytanat” romanida sujet unsurlarining turli o'rinlarda qo'llanganligini kuzatishimiz mumkin. Muallifning o'ziga xos uslubiga aylanib qolgan, romanning barcha kitoblari boshlanishida keltiriluvchi Muqaddima sujetning o'ziga xos prolog deb ataluvchi qismidir. Bunda muallif oyatlarning biridan parcha keltirib, quyida bu oyatning izohini shuningdek, unda ifodalangan g'oyaning talqinini keltirish orqali asarning mazmuni haqida bir muncha xabar beradi.

Badiiy asar tarkibidagi unsurlar badiiy xarakterlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sujetning ikki asosiy xususiyati mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat. Birinchi: Sujet-xarakter qirralari namoyon bo'ladigan voqealar majmuyidir. Ikkinchisi: Sujet – hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar majmuyi. Badiiy asar tarkibidagi har ikki unurning mavjudliigi uning kompozitsiya bilan uzviyligidan dalolat beradi.

Sujet-xarakter qirralari namoyon bo'ladigan voqealar majmuyidir. Bu xarakterli xususiyatni ”Shaytanat” romanidagi obrazlar tizimi misolida asoslash mumkin. Har qanday badiiy obraz xarakter bo'lavermagani kabi, uning shakllanish xususiyatini ham inobatga olmoq zarurdir. Hayotiy ziddiyatlar asar qahramonini xarakter darajasiga ko'tarar ekan, undagi mavjud xislatlarni ham o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Har qanday voqelik asar qahramonlariga emas balki, asar sujetidagi voqealar silsilasini ham harakatga keltiradi.

Romandagi Asadbek obrazi tinimsiz shakllanib rivojlanib boruvchi voqealar silsilasida xarakter darajasiga ko'tariladi. Uning iztiroblari, muhit o'rtasidagi ziddiyatlari, yaxshilik va ezgulik o'rtasidagi kurashlarda toblanishi, bularning

barchasi uning xarakterini shakllanishiga xizmat qiladi. Har qanday xarakter to'g'ridan – to'g'ri xarakter darajasiga ko'tarilib qolmaydi, balki badiiy asar tarkibidagi voqealar silsilasida tinimsiz harakat qilishi, ziddiyatlar zamiridan o'sib chiqishi zarurligini ham ta'kidlash kerak.

Tohir Malik o'ziga xos bo'lgan bu muqaddimada asar haqida quruq ma'lumot berishni emas, ko'proq bu asar orqali kitobxonga nimani anglatmoqchi yoxud ko'rsatmoqchi ekanligini, asarning g'oyaviy maqsad va vazifalari haqida umumiy tushuncha berishni ko'zlaydi.

Jumladan, birinchi kitobda keltirilgan prologni olaylik. “Bismillohir Rohmanir Rohim “Qachonki (bu) ish tugagach (ya'ni jannat ahli jannatga sazovor bo'lib, do'zaxiyalar do'zaxga hukm qilingach), shayton dedi: “Albatta, Oллоh sizlarga haq va'da qilgan edi. Men esa (yolg'on) va'dalar berib, sizlarni aldagan edim. (Lekin) men uchun sizlarning ustingizda hech qanday hukmronlik yo'q edi, illo men sizlarni (kufr yo'liga chaqirishim bilanoq) o'zingiz menga itoat etdingiz. Endi meni emas, o'zlaringizni malomat qilingiz. Men sizlarga yordam bera olmayman, sizlar ham menga yordam berguvchi emassiz. Albatta, men sizlar ilgari (Oллоhga) meni sherik qilganingizni inkor qilurman. Albatta, zolimlar (ya'ni kofirlar) uchun alamli azob bordir...”.¹⁹ “Ibrohim” surasining 22-oyati. Alouddin Mansur tarjiması. Oyatdagi so'zlardan ma'lumki, muallif ilk kitobning muqaddimasidayoq asaridagi qahramonlar shayton yetovidagi shaxslar bo'lib, ular uchun jazo muqarrar ekanligini va bularning barchasiga faqat va faqat o'zlari aybdor ekanliklarini ta'kidlab o'tadi.

III BOB

ASARDA KONFLIKT VA RUHIYAT TALQINI

Badiiy asarda garakter, badiiy konflikt, ruhiyat talqini doimo uzviy birlikda ifodalanadi. “Badiiy ijod, adabiy jarayon shunday sirli-sehrli hodisaki, unda tasavvurga sig'maydigan, kutilmagan xollar yuz berishi mumkin. Totalitar rejim adabiy siyosati tahdid solib turgan o'sha kezlarda garchi bunday zug'um, tazyiqlar adiblar ijodiy taqdirida chuqur asoratlar qoldirgan bo'lsa-da, chin iste'dod egalari o'shanday mash'um zamonda ham o'zligiga, ko'ngil erkiga sodiq qolib, rejim qoliplariga sig'maydigan yuksak san'at namunalari yaratganliklari chindan-da hayratomuz hodisa”.²⁰ Qahramon ruhiyati keskin konfliktlar asosida namoyon bo'ladi. Badiiy psixologizm inson xatti harakati bilan bog'liqlikda rivojlanadi, biroq bu dinamika ruhiy munosabatlar tasviridagi muayyan stereotiplarni yo'qotmaydi, balki ularning yangi shakllarini kashf etadi, - deb yozadi adabiyotshunos L.A.Ginzburg.

Romandagi ruhiy kechinmalar faqat shaxs ichki olamida emas xarakterlar orasidagi kurashda, qahramon va ijtimoiy muhit zamirida ham namoyon bo'ladi. Chunki hayotdagi konflikt – ijtimoiy hodisa bo'lsa, asar sujetining konflikti-estetik hodisa sifatida qaraladi. Shuning uchun badiiy asarda konflikt san'at qonuniyatlariga to'la bo'ysundirilgan holda ifodalanadi. Romanda adib

¹⁹ Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарқ, 2006.5-бет

²⁰ U.Normatov. ijod sehri. –T.: “Sharq”, 2007.146-bet.

voqelikning faqat ko‘z ilg‘aydigan tashqi tomonlarigagina emas, balki uning mohiyatiga ham nazar tashlaydi. Asar qahramonlarining barcha tashvishlarini ularning ruhiy olami orqali ochishga harakat qilgan yozuvchi badiiy xarakterlarini yuzaga chiqarishda ruhiy tasvirning turli shakllaridan unumli foydalanadi.

Ma‘lumki, badiiy mushohada zalvori mudom ijodiy cheksizlikka intiladi. Aniqrog‘i, adabiy tafakkur qiyosiy ko‘rgazmalilik yordamida tafsilot haqida tasavvur uyg‘otish bilan chegaralanmaydi, balki falsafiy konsepsiyani ham ifodalaydi. Shu tariqa psixologik jarayon hamda uning shakllanishi tarzi poetik axborot hajmini qamrab oladi. Zero, aniqlik va mavhumlik muvozanati moddiylikning asosini tashkil etadi. Estetik formulalarning o‘zaro munosabati esa yaxlitlikni, demakki, fikr tiniqligini ta‘minlaydigan yordamchi vositalardir. Ijod qonuniyatlari bosh spitsifik xususiyati mazmuniy poetikani mantiqiy dalillashdan iborat ekan, tasvir va umumlashma uyg‘unligi badiiy ma‘no tarkibiy qismi ekanligini idrok etish qiyin emas. Aslida, ifoda yo‘sunidan ko‘zlangan maqsad ham bevosita timsolning sentetik xarakterini keng yoritish tahlilini uyushturishdan iborat. Shunday ekan, tuyg‘u ibtidosi va ma‘no maydoni mutunosibligi kompozitsion tarqoqlikni ta‘minlaydigan yetakchi atribut hisoblanadi. Real tajriba dalolati va badiiy umumlashma muvozanati emotsional ta‘sir hamda ekspressiv tezkorlikning tuslanish (tushuncha-ifoda-tasvir faolligi) me‘yorlari bilan o‘lchanadi.

Shaytanat olamining vakillaridan, nafaqat vakili, balki “yo‘lboshchilaridan” bo‘lgan Asadbek har qancha yovuz, qahri qattiq kishi bo‘lmasin, u, avvalo, inson edi. Zero, har qanday ona o‘z farzandini dunyoga keltirar ekan uni jinoyatchi, o‘g‘ri, yoxud qimorboz bo‘lsin degan niyatda dunyoga keltirmaydi. Shunday ekan quyidagi she‘rda ifodalangan pushaymonlik hislari ham unga tamoman yod emas.

Xudovando, na qildim turfa yozdim,
Shaytoning makri birlan yo‘ldan ozdim.
Pushaymonman parishon o‘tgan ishdan.
Bahor-u tiyra moh yoz-u qishdin.

Asadbekning yuragida ham boshqa insonlarga xos xislatlar mavjud. U o‘z o‘rnida jonkuyar farzand, mehribon ota, g‘amxo‘r do‘st, samimiy aka hamdir. Uning mana shu burchlarini bajarish holatida esa ruhan ezilib, iztiroblar iskanjasida qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Adabiyotshunos H. Umurov shunday yozadi: “Xarakterni uni psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligi va to‘laqonliligini ta‘minlaydi, uni reallashtiradi, ta‘sirchanligini oshiradi. Shu sabab, agar analogik fikrlaydigan bo‘lsak, xarakter va uning psixikasi o‘rtasidagi munosabatni mazmun va forma o‘rtasidagi murakkab dialektik aloqaga o‘xshatmoq to‘g‘ridir”.²¹ Haqiqatdan ham roman sujetidan o‘rin olingan rang – barang his tuyg‘ular, kechinmalar olami tahlili natijasida asar qahramonlarining o‘ziga xos xarakterlari oydinlashadi. Bu xususiyatlar asarning deyarli har bir nuqtasida namoyon bo‘ladi. Zero, Asadbek har qancha ashaddiy jinoyatchi bo‘lmasin, avvalo, u ham inson, ojiz banda. Adabiyotshunos Abdug‘ofur Rasulov qayd qilganidek: “Inson o‘sadi,

²¹H. Umurov. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – Toshkent, Fan, 2007. 23-bet.

o'zgaradi, shakllanadi, ruhan-ma'nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o'zgarib, ikkinchi "men" kasb etmaydi, o'zligini yo'qotmaydi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro'y beradi. Aniqroq aytsak, fitrat mavjudki, inson o'zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi".²²

Darhaqiqat, asarda talqin etilganidek Asadbek birovning taqdirini hal qilish onlarida, umriga nuqta qo'yishga farmon berayotgan chog'ida, bir tuki ham qilt etmaydi, zarracha shafqatni bilmaydi. Asadbekning ruhiy iztiroblari, ruhiy azoblanishi, otalik, farzandlik burchlarini bo'yniga olgan holatidagina juda asosli talqin etilganini ko'rishimiz mumkin. U topshiriq berish borasida diydasi qattiq, bu birovni bolasi deb ayab o'tirmas, lekin Asadbek g'animlari uchun toshbag'ir, farzandlari uchun g'oyat mehribon inson sifatida uning xarakteri shakllanib boradi. Qizining o'g'irlanishi esa unga juda og'ir zarba bo'ladi. Asadbek qimorboz, o'g'ri, jinoyatchi bo'lsa-da, oila, farzand nima ekanligini teran his etardi. U shu jihati bilan ham o'z oilasini pulga alishtiruvchi, qimorga tikuvchi "hamkasblari"dan farqlanardi. Asadbek qizining bu ahvolga tushishida o'zini sababchi deb bilar, qilgan jinoyatlarim, gunoh ishlarimning kasriga qizim shunday ahvolga tushdi deb hisoblardi. Ana shunda uning qalbida ham o'ziga nisbatan, ham nomusini poymol etganlarga nisbatan konflikt yuzaga keladi. Buni zohiran tan olmasa-da, botinan iqrar bo'lar, bir paytlar Kesakpolvonning gapi bilan katta restoran egasining uyini bosib, yosh qizlarini shotirlari uning buyrug'i bilan nomusini poymol qilishganda, uy egasi ularni qarg'aganini eslab, yuragi titrar, qizining bu ahvoliga shubhasiz o'zi aybdor ekanligini tan olar edi. Balki bu gaplar erish tuyulishi mumkin, lekin qizi haqida o'ylar ekan, Asadbekni tuni bilan vijdon azobi qiynar, pushaymonlik olovida jizg'anak bo'lar, ilonday to'lg'anib chiqishiga sabab bo'lar edi.

– Qizimni o'g'irlashdi, -dedi. Shu gapni aytdi-yu uyatdan yonib ketay deb ko'zini olib qochdi. Aybiga iqrar bo'lgan gunohkorday boshini egdi.

- Qachon? Topilmadimi?
- Kecha o'zlari tashlab ketishibdi.
- Kimligini bildingmi?
- Aniq bilmayman. Gumonim bor.

Jalil o'yg'a toldi. Bir necha nafasdan so'ng xo'rsindi: -Xudodan qaytibdi...".²³ Qiz bola nafaqat xonadonining, balki, ota-onasi, aka-ukalarining ham or-nomusi hisoblanadi. Asadbekni eng ko'proq azobga soladigan narsa ham shu gunohkorlik hissi edi. O'rtog'i Jalilning "Xudodan qaytibdi" degan ta'nasini eshitgandayoq ruhan eziladi. Jalilni gap kelganda ayab o'tirmasligini bilsa-da, dili og'riydi. Bir paytlar qilgan qilmishlari, gunohlari uchun nahotki, farzandlari javob bersa?! Bunday mudhish o'ylar unga sira tinchlik bermaydi. Shuurini turli o'ylar girdobi egallab olgan, ikki qutb kabi ikki xil fikr, ikkilanishlar sirtmog'i ruhini soniya sayin bug'ib borar, nafasini qisar edi. "Qizining o'g'irlanishi – uning nomusiga tegmagan taqdirda ham – ota-ona nomusining toptalishi bilan barobar.

²²А.Расулов. Бадийлик – безаволянгилек. Илмий-адабиймақолалар, талқинлар, этюдлар. –Тошкент,Шарк 2007. 9-бет.

²³ТоҳирМалик. Шайтанат. Роман. Биринчикитоб. – Тошкент, Шарк, 2006. 120-бет.

Shunday ekan, Asadbek bunga qanday chidasin?! Bolaligidan o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan nafrat hissini tuyib o‘sgan odamning taqdirning yana bunday achchiq zarbasiga uchrashi qalbidagi nafratni yanada alangalashiga sabab bo‘lmaydimi?! Chap yelkada o‘tirgan uni shayton qasosga undaydi: “Qo‘lingni uzatsang yettinchi osmonga ham yetadigan insonsan. Birov sening kosangga tuflabdi, oshi halolingni bulg‘abdi-yu, sen ezilib yuribsanmi, kimdan gumoning bo‘lsa – yanchib tashla! Bugun qasos olmasang, ertaga el oldida basharangga tupurishadi. Otangni olib ketishganda nochor eding. Ana shu nochorlik seni bir umrlik armon o‘tida kuydiryapti. Endi ham nochormisan? Qon to‘kmasang, erkak emassan! O‘zingni ko‘rsat! Nomus uchun qon lozimligini erkaklarga eslatib qo‘y!!” Ammo qilich yalang‘ochlangan damda o‘ng yelkada o‘tirgan Rahmon bilagidan ushlab to‘xtatadi. Qon to‘kishga yo‘l bermaydi. “Gumoning to‘riga o‘ralganlarni tig‘dan o‘tkazishing – o‘jizliging alomati. Gunohkor osongina jon berib qutulib ketadi. Sen esa nomus azobida to‘lg‘onib qolaverasan. Sen hozir uning gunohlaridan o‘t. Ammo shunday qilginki, umri azobda o‘tsin. Vaqti kelib oyog‘ingga bosh ursin, tavbalar qilsin. Ana shunda o‘ldirsang humordan chiqasan. O‘lsang, ko‘zing ochiq ketmaydi...”.²⁴ Bunday ayanchli holatga, iztiroblarga bardosh bera olmagan, qizining baxtini poymol qilgan badbaxt ota sifatida Asadbek umrida tiliga olishni xohlamagan, “Xudo bilan shartnomamiz bor” deb ahd qilganiga qaramasdan, Xudoga yolvoradi, undan farzandlarining baxtini so‘raydi. Shunday paytda Xudo borligi esiga tushib, Yaratgandan madad so‘raydi. “Umr bo‘yi azob chekkanim yetmasmidi?” deydi. “Nimaiki azobing bo‘lsa, barchasini tatib ko‘rdim-ku, endi tinchligimni olgan bo‘lsang, boyliklaringni qaytarib ol, meni gado qil, ammo bolalarimning baxtini ber, men ham odam bo‘lib rohat ko‘ray, bir kecha tinchgina uxlay, bir kun bir piyolagina choyni bolalarim davrasida tinchgina ichay...” deydi. Asadbek ham boshqalar kabi oddiy va xotirjam hayot kechirishni istaydi. Lekin uning martabasidagi odam o‘zi uchun shu baxtni ham yarata olmasdi. Zero, Tohir Malik o‘zi ta’kidlaganidek “Dunyo shaytonning do‘koni, undan bir narsa oldingmi, shayton haqini undirib olmagunicha tinchimaydi. Asadbek shaytonning do‘konidan ko‘p narsa olgan edi, yillar o‘tib, qizining nomusi va bir o‘g‘lining joni bilan haq to‘ladi. Dunyoda hech qanday zulm jazosiz qolmaydi”.²⁵ Muallif Asadbek qalbidagi bu o‘ylarini tilga chiqarmasa-da, qahramon ichki nutqida bayon etib o‘tadi.

Yovuzlikni o‘ziga amal deb bilgan bunday insonning nolalari har qanday odamning yuragini larzaga soladi.

²⁴Тоҳир Малик. Шайтанат. Роман. Биринчи китоб. – Тошкент, Шарк, 2006. 121-122-бетлар.

²⁵Қурбон Ш. Тоҳир Малик сабоқлари: Адиб шахсияти ҳақида ўйлар. – Тошкент: DAVR PRESS, 2008. – 61-бет.

XULOSA

XX asr oxiri O'zbekiston hayotida siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-huquqiy va ruhiy yangilanishlar, turli qarama qarshiliklaru ziddiyatlar, ezgulik va yovuzlik to'qnashuvi silsilalari davr sifatida tarix sahifalariga muhrlandi. Ulkan yangilanishlar oldida turgan tarixiy jarayonni o'zining yak rang o'zanida saqlash, munosabatlarni o'zgartirish, jamiyat va tafakurni yangilashdan manfaatdor bo'lmagan, millat ruhiyati hamda g'ururini sindirishga intilgan kuchlar shaxsning erkinligi, daxlsizligi, qadr-qimmat, e'tiqodi, qonun oldida tengligi tamoyillarini qo'pol ravishda buzdilar. Millatimizni mensimaslik, kamsitish, ma'naviy-madaniy hayotimizning o'ziga xos tomonlarini nazar-pisand qilmaslik orqali sobiq Ittifoq doirasidagi mutloq hukmronligini saqlab qolishga urungan siyosiy kuchlar shovimistik xatti-harakatlar sodir etishdi. Usha yillari O'zbekistonda qo'lga kiritilgan yutuqlar – qalloblik, el orasida obru-e'tibor topgan kishilar – “poraxo'r”, millat jonkuyarlari – “jinoyatchi” an'ana va udumlarga amal qilganlar – “qoloq mutaassib”, millatiga mehr-muhabbat bilan qaraganlar – “shovinist” qabilida ommaviy tarzda taqib va qatag'on qilinishi hukmron g'oya aqidasi naqadar nosog'lom ekanligini ko'rsatadi.

Iste'dodli yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” romanida inson fojialari, ruhiy iztiroblari hayot voqealari silsilasida o'z aksini topgan. Shu nuqtai nazardan xarakterlarning shakllanishda muhitning roli beqiyos ekanligi Asadbek, Elchin, Zohid, Jamshid kabi o'nlab obrazlar misolida asoslanadi. Ularning taqdir yo'llarini kuzatar ekansiz, shaxs shakllanishida mavjud jamiyat tuzumi, ijtimoiy muhitdagi sharoit o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligiga amin bo'lasiz.

“Shaytanat” romanida g'oya (muammo) zalvori va badiiy shakl muvofiqligi poetik fikrni shakllantirishning asosiy mezon darajasiga ko'tariladi. Unda so'zning hissiy tuslanish jarayoni, ijodkorning borliqqa faol ruhiy munosabati, tashbeh tanlash – qo'llash imkoniyati, mazmun originalligi va shakl izlanishlar uyg'unligi, emotsional bo'yoqdorlik hamda ekspressiv tezkorlikning o'zaro bog'liqligi namoyon bo'lgan. Umuman, adib ijodida tuyg'u va ong o'rtasidagi munosabat tahlili Tohir Malik asarlari adabiy tizimda alohida bir badiiy hodisa ekanligi, muayyan estetik bosqichlarga egaligi, sifat jihatdan boyib, inson ruhiy olamini badiiy inkishof etish va o'rganishda jiddiy yutuqlarga erishayotganligini ko'rsatib turibdi. Adib romanlari haqida adabiy tanqidda turli mulohazalar qayd etilgan bo'lsa-da, “Shaytanat” romani ham yetuk asarlardan biri ekanligini alohida qayd etib o'tish lozimdir.

“Shaytanat” romanida o'ziga xos obrazlar tizimi yaratilgan bo'lib, ularda davrning o'ziga xos itoatning isyoni yoki, aksincha isyonning itoati qalb kechinmalarida teranroq kashf etiladi. Romanda ma'naviy axloqiy madaniy qadriyatlar talqini mahorat bilan badiiylashtirilgan. Shu xususiyatni o'ziyoq, inson botiniy olamidagi o'zgarishlarni ifodalaydi.

Asarda yurtimizning 80-yillardagi ijtimoiy muhiti, yemirilib borayotgan tuzumning chirkinliklari, jamiyatning qora va qorong'u ko'chalari mahorat bilan yoritilgan. Ayniqsa, o'sha davrda jamiyatda ildiz otgan jinoyatchilik, bu olamning o'ziga xos sir-u sinoatlari, yovuzlikning turfa ko'rinishlari, tuzumdagi illatlar,

ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi evrilishlar asardagi mavjud jinoyat toʻdalari faoliyati, romandagi voqealari, qahramonlar hayoti tasviri orqali izchil yoritib boriladi. Shaxs yashayotgan jamiyat, uni oʻrab turgan ijtimoiy muhit bu shaxsning xarakteri shakllanishida tutgan oʻrni batafsil asoslab berilishida qahramonlarning hayot yoʻlini hikoya qilish yoxud ularni ruhiy kechinmalar va iztiroblar olamida tasvirlash orqali koʻzlangan maqsadga erishilgan. Qahramonlar xarakteri, dunyoqarashi shakllanishida oʻz hukmini oʻtkazgan ijtimoiy taʼsirlar baʼzi qahramonlar ruhiyatida konfliktning bir turini, baʼzilarida esa har uchala turini yuzaga keltirishi bu esa ularning dunyoqarashi, fikrlariga singib ketgan holda hayot yoʻlini, taqdirini belgilab berishi yoxud tubdan oʻzgartirib yuborishi mumkinligi ifoda etilgan. Bu oʻrinda, ayniqsa, Asadbek, Elchin, Zohid kabi qahramonlar taqdiri, ular hayotida roʻy bergan keskin burilishlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Asardagi qahramonlar taqdiriga nazar solar ekansiz, jinoyat olamiga kirib qolgan har qanday shaxs bu yoʻldan toʻgʻrilikcha chiqib keta olmasligi, muallif tili bilan aytganda, "...kafansiz ketishi aniqroq" ekanligi ularning hayot yoʻllari qay tariqa yakun topganligi tasvirini berish orqali oʻz isbotini topgan. Shuningdek, jinoyat olamining vakillari oʻziga faqatgina yovuzlikni amol qilib olgan shaxslar emas, ular ham boshqa insonlar kabi ruhiy iztiroblar iskanjasida qolganini koʻrishimiz mumkin. Ayniqsa, asar qahramonlaridan biri Asabek obrazini biz romanning koʻpgina oʻrinlarida oʻy-xayollar, iztiroblar, ruhiy qiynoqlar, kechinmalar qurshovida qolganligining guvohi boʻlamiz.

Romanda mavzu va gʻoyaning dialektik birligi kuzatiladi. Asarda sujet va kompozitsiyaning oʻzaro yaxlitligi oʻz ifodasini topgan. Sujet va uning elementlari, tarkibiy qoʻshimcha sohalri asar matniga singdirilib yuboriladi.

Tohir Malik asar voqealarini tasvirlashda shafqatsiz realizm koʻrinishlaridan mahorat bilan foydalanadi. Xususan, jinoyat olamini, bu olam vakillariga xos xususiyatlarni, ulardagi mavjud tuban qusurlarni yaqqol koʻrsatib beradi. Bu qahramonlarning har bir gapida, qilgan harakatlarida, bajargan ishlarida aks etib turadi. Bunda koʻzlangan asosiy maqsad asarning qiziqarliligini orttirish emas, balki muallif oʻzi aytib oʻtganidek, "Yozuvchining vazifasi nimadan iborat? Jamiyatni kuzatish, tahlil etish, yuzaga chiqayotgan muammolarni hal etishda qatnashish emasmi? Oʻtmish jamiyatning ogʻriqli nuqtalaridan biri – jinoyat olami edi. Men oʻsha xastalikning bir zarrasinigina qalamga olganman. Jinoyat olami, yaʼni shaytonlar yetovidagi olamning naqadar qabih ekanini odamlar oʻz koʻzlari bilan koʻrib yoki eshitib yurgan edilar. Men shulardan ayrimlarini jamlab, qogʻozga tushurdim xalos. Bu voqealarni yozishdan asosiy maqsadim – odamlarni ogohlantirish edi: "Odamlar koʻrib qoʻyinglar, befarq yurmanglar, siz bilan bizning yonimizda koʻzga koʻrinmas, ammo vahshiy bir olam borki, undan oʻzingiz ham ehtiyot boʻling! Ayniqsa, farzandlaringizni asrang, toki bu olamga bandi boʻlib qolishmasin. Bu olamning bittagina eshigi bor. Kirdingmi, tamom oʻz oyogʻing bilan qaytib chiqishing mahol, kafansiz ketishing aniqroq..." demoqchi boʻlganman".²⁶ Xulosa qilib aytganda, asarda shaxs xarakterining shakllanish

²⁶Қурбон Ш. Тоҳир Малик сабоқлари: Адиб шахсияти ҳақида ўйлар. – Тошкент: DAVR PRESS, 2008. – 57-58-бетлар.

jarayoni va bu jarayonga ta'sir etuvchi omilllar, shuningdek, shaxs xarakteridagi ziddiyatlar ko'rinishi mahorat bilan tavirlangan.